



IJTIMOY TARMOQ PLATFORMALARIDA LEKSIK BIRLIKLAR TARJIMASINING AHAMIYATI

Muallif: Naimjonova Iroda Ma'rufjon qizi ¹

Affilyatsiya: Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti ¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15202649>

ANNOTATSIYA

Zamonaviy tilshunoslikda so'nggi yillarda tarjima nazariyasi, tarjimashunoslik sohalariga ham e'tibor sezilarli darajada ortgan bo'lib, ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Tarjimashunoslik ko'plab sohalarga kirib ulgirdi desak adashmagan bo'lamiz. Sababi tarjimaga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Tilshunoslikda ham tarjima nazariyasining o'rni beqiyos, ushbu sohalarni birgalikda o'rganish zamonaviy tilshunoslikning mavzu ko'lamini kengaytirmoqda.

Kalit so'zlar: tarjimashunoslik, ijtimoiy tarmoq, platformalar, o'zlashma, rasmiy muloqot, norasmiy muloqot, leksik birlik, tarjima.

KIRISH

Tarjimashunoslik tilshunoslik, tarixshunoslik, falsafa, psixologiya, adabiyotshunoslik kabi o'zaro yaqin fanlarning doimiy ta'sirida oyoqqa turdi. XX asrning 60-yillaridan e'tiboran ushbu "ittifoqchi" fanlar safiga san'atshunoslik ham tortildi. Tarjima tanqidi doirasida tarjima poetikasi va estetikasi degan bepoyon mavzular silsilasi ham maydonga chiqdi.[3:12] Bundan ko'rinib turibdiki, tarjimashunoslik kirib kelib, asta-sekinlik bilan fanlarning tarkibiga kiritilib, birga o'rganiladigan bo'ldi. So'nggi yillarda ushbu sohaga doir ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilib, alohida ahamiyat qaratilmoqda. Sababini yuqoridagi fikrlardan ham dalil qilishimiz mumkin. Dunyo adabiyoti, dunyo savdosi, dunyo tarmoqlari rivojlanishi uchun tarjimaning roli kattadir. Shuning uchun har qanday sohaning olim-u tadqiqotchisi tarjimashunoslikni o'zining sohasi tarkibida o'rganmoqda. Tilshunoslikda ham tarjimaning o'rni bo'lak. Fikrimning dalili sifatida quyidagi fikrlarni misol qilaman: "Biron matnni bir tildan ikkinchisiga tarjima qilish lingvistikaga oid jarayondir. 1980-yillardan oldin tilshunoslar til nazariyasi va tarjima orasidagi bog'liqlikka juda kam ahamiyat berishgan. Chunki bunday bog'liqlik avval o'tilmagan va tarjima nazariyasi asta-sekinlik bilan rivojlana borgan, bu jarayonning sust bo'lishiga bir sabab tilshunoslar til hodisalarini tarjimaga qo'llamaganligidir. Tarjimonlar til nazariyasida matn, semantika nazariyasini qo'llamoqdalar. Tilshunoslik nazariyasi tarjima nazariyasi bilan juda muhim aloqadorlikda bo'lib, uni tarjima jarayonida amalda tadbiq qilinadi." [3:19]

Tarjimaning nimaligini Sh.Sirojiddinov va G.Odilova quyidagicha ta'riflaydi:
"Tarjima – bir tilda yaratilgan muayyan asarning o'zga bir xalq ma'naviy ehtiyojiga xizmat

qildiradigan, undan badiiy zavq olishi uchun imkoniyat yaratib beradigan kommunikativ vositadir.”[2:16]

Tadqiqotimizda bugungi kunda dolzarb bo'lgan ijtimoiy tarmoq platformalaridagi tarjimaning o'rne va ahamiyati tahlil qilinadi. Zamon talabi bo'lgan texnika va texnologiya vositalarining, gadjetlarning kirmagan sohasi qolmayapti. Tabiiyki, texnikaning vatani xorijiy davlatlar bo'lib, ularni tushunish tarjimini talab qilmoqda. Ba'zi o'rinlarda tarjimadan foydalanmasdan, aslini qo'llash holatlari ham kuzatilmoqda.

ASOSIY QISM

Ijtimoiy tarmoq – bu qiziqishlari o'xshash yoki oflayn aloqaga ega bo'lgan odamlar o'rtasida [muloqot qilish](#), tanishish, ijtimoiy munosabatlar yaratish uchun, shuningdek, ko'ngilochar (musiqa va filmlar) va ish maqsadlarida ishlatiladigan onlayn platforma.[4] Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish xuddiki “urf”ga kirganday, ko'plab insonlardan turli ijtimoiy tarmoq platformalari, saytlaridan kuniga foydalanadilar. Foydalanish jarayonida turli tuman yangi leksik birliklarga duch keladigan hamda foydalanadilar. Foydalanish jarayonlarida ba'zida tarjimadan foydalanadilar, ba'zida esa asl leksik birlikni qo'llaydilar.

Til taraqqiyotining tashqi omili, atalishiga muvofiq, chetdan, ya'ni boshqa tillardan o'tib o'zlashgan so'zlar va ularning o'zga tildagi amali bilan aloqador bo'ladi. Boshqa tillardan, ya'ni chetdan kirgan so'z va iboralarni lug'aviy (agar u so'z bo'lsa) va frazem (agar u ibora bo'lsa) o'zlashmalar deyiladi.[1:55] Sof til bo'lmaganidek, har bir xalqning muomalada qo'llaydigan, hatto yozma ravishda yozadigan chetdan o'zlashgan so'zlari mavjud bo'ladi. Tadqiqotimizda ijtimoiy tarmoqqa oid leksik birliklarni tahlil etar ekanmiz, Instagram hamda Facebook platformalarida *lifehack*, *post*, *profil*, *story*, *respect*, *reels*, *podcast*, *like*, *comment*, *content* kabi bir qancha leksik birliklarning o'z tilimizda ham qo'llash holatlarini kuzatishimiz mumkin. Yuqoridagi birliklar tarjimasi, ya'ni o'zbek tilidagi muqobil variant mavjud bo'lsada, asl holatida tilga kirib keldi va tezda ommalashib ketmoqda. Lifehack – hayotiy maslahat, post – video, rasm yoki xabar, story – ijtimoiy tarmoqqa qo'yilgan video, rasm, profil – shaxsiy kabinet, respect – ijtimoiy tarmoqdagi mavjud video yoki rasimga hurmat yoki qoyil qolish belgisi, reels – kunlik almashinib turuvchi qisqa-qisqa videolar, like – yoqtirish belgisi, comment – izoh qoldirish, content – video qo'yish. Yuqoridagi leksik birliklarning tarjimasi ham qo'llanilsa bo'lar edi, ammo xuddiki “urf” ga kirganday, asl so'zdan foydalanamiz. Ammo o'zbek tilidagi ba'zi fe'llarni ushbu so'zlarga qo'shish orqali, o'zlashtirish hosil bo'lmoqda. Xususan, qo'ymoq, joylamoq, o'zgartirmoq, yozmoq kabi o'zbek tilidagi fe'llarni xorijiy so'zlarga qo'shish orqali o'zlashtirilmoqda desak adashmagan bo'lamiz: *post+qo'ymoq*, *profil+o'zgartirmoq*, *comment+yozmoq* va h.k

Tarjimashunoslik rasmiy va norasmiy muloqotni ajratishda o'z ahamiyatiga egadir. Ya'ni norasmiy nutqda yuqoridagi kabi qo'llanilishi yoki xorijiy leksik birliklar umuman tarjima qilinmasligi mumkin. Ammo matnlarda, rasmiy nutqda, albatta, tarjima qilish orqali qo'llaniladi, jumladan, *izoh qoldirmoq*, *fikr bildirmoq*, *“yoqtirish” belgisini bildirmoq*, *“hikoya” joylamoq*, *qo'ymoq* va h.k. Ammo shunday leksik birliklar mavjudki, ularni tarjima qilishning imkoni yo'q. Masalan, Reels, lifehack, content, respect, podcast, post, profil kabi leksik birliklarni tarjima qilish foydalanuvchiga tushunarsiz bo'lishi mumkin yoki ma'nosiga ham ta'sir qilishi mumkin. Misol uchun: Reels – tikuv ipi turadigan dumaloq shakldagi obyekt, g'altak[5] ning ko'plikdagi shakli; content –

xursand, mamnun hissiyot[6]; respect – hurmat[7]; post – xat[8] kabilarni keltirishimiz mumkin. Ushbu so'zlarni tarjima qilib qo'llansa, boshqa ma'no berishi mumkin. Ijtimoiy tarmoqda yuqoridagi so'zlar aslidan farqli ma'noda qo'llaniladi va buni yuqoridagi misollarda ko'rishimiz mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib yozadigan bo'lsak, tilshunoslikda tarjimaning o'rni beqiyosdir. Tarjimaning turi ko'p, jumladan, so'zma-so'z tarjima, ma'nosi bo'yicha tarjima qilish mumkin. Tarjimondan ham tarjima qilish jarayonida o'ta katta sabr hamda tajriba, tilni bilishlik, bundan tashqari, madaniyatdan boxabarlik talab etiladi. Ijtimoiy tarmoq platformalarida esa har bir foydalanuvchi o'zi tarjimondir, ya'ni xorijiy atamalarni ko'rganda, ularni sinxron ravishda, o'sha vaqtning o'zida tarjima qilishi zarur yoki tomosha qilgan video, rasm orqali ham notanish leksik birligini anglab yetishi mumkin. Ijtimoiy tarmoq platformalaridagi leksik birliklarni tarjima qilishdan tashqari, ularning o'zbek tilida ham talaffuziga e'tibor qaratishimiz lozim. Misol tariqasida, post joylamoq leksik birligi o'zbek tilida [po'st] shaklida, reels esa [rils] shaklida, lifehack leksik birligi esa [layfhak] shaklida talaffuz qilinadi. Bundan shuni tushunishimiz mumkinki, tarjima qilinmasa ham, ammo yozilishida aynan o'sha so'zni noto'g'ri yozish holatlari ham ijtimoiy tarmoq platformalarida uchrab turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Berdialiyev A. O'zbek sinxron sotsiolingvistikasi. – Toshkent, 2019. – B. 55.
2. Sirojjidinov Sh., Odilova G. Badiiy tarjima asoslari, monografiya. – Toshkent: "Mumtoz so'z", 2011. – B. 16.
3. G'ofurov I., Mo'minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. – Toshkent: "Tafakkur bo'stoni", 2012. 214 b.
4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Ijtimoiy_tarmoq
5. <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/reel>
6. <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/content>
7. <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/respect>
8. <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/post>